


XI. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI




Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2026- yilning 1-yanvar holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 43 116 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 25 745 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 59,7 % ini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi, (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (43,1 %), savdo (18,7 %), sanoat (9,0 %) va qurilish (4,9 %) sohalariga to'g'ri keldi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



**Jizzax viloyatidagi korxonalar va tashkilotlar sonining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi
(2026- yil 1-yanvar holatiga)**

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %da	birlik	jamiga nisbatan %da
Jami	43 116	100,0	25 745	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	19 884	46,1	10 231	39,7
sanoat	3 898	9,0	2 164	8,4
qurilish	2 096	4,9	1 226	4,8
savdo	8 083	18,7	5 156	20,0
tashish va saqlash	607	1,4	394	1,5
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 954	4,5	1 268	4,9
axborot va aloqa	401	0,9	252	1,0
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	523	1,2	451	1,8
boshqa faoliyat turlari	5 670	13,2	4 603	17,9

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2026- yilning 1-yanvar holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 28 434 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 18 461 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 64,9 % ini tashkil qildi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning ulushi) savdo (28,4 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (18,3 %) sanoat (13,7 %) va qurilish (7,4 %) sohalariga to'g'ri keldi.

Jizzax viloyatidagi korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi
(2026- yil 1-yanvar holatiga fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	Ro'yxatga olinganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar	
	birlik	jamiga nisbatan %da	birlik	jamiga nisbatan %da
Jami	28 434	100,0	18 461	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	5 202	18,3	2 947	16,0
sanoat	3 898	13,7	2 164	11,7
qurilish	2 096	7,4	1 226	6,6
savdo	8 083	28,4	5 156	27,9
tashish va saqlash	607	2,1	394	2,1
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 954	6,9	1 268	6,9
axborot va aloqa	401	1,4	252	1,4
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	523	1,8	451	2,4
boshqa faoliyat turlari	5 670	19,9	4 603	24,9

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2026- yilning 1-yanvar holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri 7 344 ta (25,8 %), Sharof Rashidov 4 117 ta (14,5 %), G'allaorol 2 564 ta (9,0 %) va Zomin 2 385 ta (8,4 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan subyektlar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)



Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2026- yil 1-yanvar holatiga 18 461 taga yetib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 1 855 taga ko'paydi (o'sish sur'ati 111,2%). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 31,0 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 17,7 %, sanoat – 13,0 %, qurilish – 7,4 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 7,6 %, tashish va saqlash – 2,4 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,7 %, axborot va aloqa – 1,5 %, boshqa sohalar – 27,7 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari

Jami:	18 461	Jizzax shahri	4 912
Arnasoy tumani	907	Zarbdor tumani	869
Baxmal tumani	1 387	Mirzacho'l tumani	582
G'allaorol tumani	1 626	Zafarobod tumani	587
Sharof Rashidov tumani	2 745	Paxtakor tumani	917
Do'stlik tumani	640	Forish tumani	1214
Zomin tumani	1 608	Yangiobod tumani	467

**Jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning
hududlar bo'yicha taqsimlanishi
(2026- yil 1-yanvar holatiga, birlik)**

	2026- yil 1-yanvar holatiga ro'yxatga olinganlar soni	Shu jumladan, 2025- yil yanvar-dekabr oylari davomida:	
		yangi tashkil etilganlar	tugatilganlar
Jizzax viloyati	43 116	3 827	10 856
<i>shahar:</i>			
Jizzax	7 402	853	2 052
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	2 817	422	553
Baxmal	3 762	243	772
G'allaorol	4 622	367	1 370
Sharof Rashidov	5 875	626	1 521
Do'stlik	1 879	152	467
Zomin	4 038	284	1 188
Zarbdor	3 312	160	659
Mirzacho'l	2 055	116	494
Zafarobod	2 023	174	410
Paxtakor	2 184	165	473
Forish	2253	156	635
Yangiobod	894	109	262

2025- yilning yanvar–dekabr oylarida jami 3 827 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olindi (shundan kichik biznes sub'yektlari 3 652 ta). Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo'yicha ro'yxatga olingan jami korxonalar va tashkilotlarning 22,3 %i), Sharof Rashidov (16,4 %), G'allaorol (9,6 %) hamda Arnasoy (11,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


**Ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning hududlar
bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlik)

	2026- yil 1-yanvar holatiga ro'yxatga olinganlar	shuningdek, 2025- yil yanvar-dekabr oylari davomida:	
		yangi tashkil topganlar	tugatilganlar
Jizzax viloyati	28 434	3 761	7 661
<i>shahar:</i>			
Jizzax	7 344	853	2 037
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	1 449	414	311
Baxmal	2 091	240	442
G'allaorol	2 564	362	792
Sharof Rashidov	4 117	621	1 014
Do'stlik	1 104	141	336
Zomin	2 385	280	774
Zarbdor	1 409	158	366
Mirzacho'l	1 040	98	307
Zafarobod	1 034	174	217
Paxtakor	1 459	164	320
Forish	1 757	155	570
Yangiobod	681	101	175

2025- yilning yanvar–dekabr oylarida (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) jami 3 761 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan (shundan kichik biznes sub'yektlari 3 586 ta). Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo'yicha ro'yxatga olingan jami korxonalar va tashkilotlarning 853 tasi, yoki 22,7 %), Sharof Rashidov (621 ta, 16,5 %), G'allaorol (362 ta, 9,6 %) va Arnasoy (414 ta, 11,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2026- yil 1-yanvar holatiga 25 056 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 19 177 ta, xususiy korxonalar 3 503 ta, oilaviy korxonalar 1 957 ta, boshqa tijorat korxonalar 419 tani tashkil etdi.

Ro'yxatga olingan tijorat korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllari bo'yicha soni
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning 32,3 %i savdo, 20,6 %i qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 15,5 %i sanoat va 7,8 %i yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohalariga to'g'ri keldi.

Hisobot davrida 7 474 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyati tugatilgan.


Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar. 2026- yilning 1-yanvar holatiga xorijiy mamlakatlar rezidentlari kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 258 tani tashkil etdi.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida 89 ta, Turkiya Respublikasi 54 ta, Rossiya Federatsiyasi 40 ta, Buyuk Britaniya 6 ta va boshqa davlatlar kapitali ishtirokida 69 ta korxonalar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hamkor davlatlar kesimidagi soni, *birlikda*

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 107 tasi qo'shma korxonalar, 151 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2025-2026- yillar 1-yanvar holatiga xorijiy mamlakatlar rezidentlarining kapitali ishtirokida ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni 58 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,8 % ga kamaygani kuzatildi. Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi – 34 ta, Turkiya Respublikasi – 7 ta, Rossiya Federatsiyasi – 7 ta hamda boshqa davlatlarning rezidentlari kapitali ishtirokida 10 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar
(2026- yil 1-yanvar holatiga, birlikda)

	2025- yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni	shundan	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Jizzax viloyati	258	107	151
<i>shahar:</i>			
Jizzax	92	33	59
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	20	4	16
Baxmal	6	2	4
G'allaorol	16	8	8
Sharof Rashidov	26	13	13
Do'stlik	10	2	8
Zomin	24	10	14
Zarbdor	6	2	4
Mirzacho'l	2	1	1
Zafarobod	11	4	7
Paxtakor	11	9	2
Forish	32	18	14
Yangiobod	2	1	1

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahrida 92 ta (umumiy miqdordagi ulushi 35,7 %), Forish tumanida 32 ta (12,4 %), Zomin tumanida 24 ta (9,3 %), Sharof Rashidov tumanida 26 ta (10,4 %), Arnasoy tumanida 20 ta (7,8 %) hamda G'allaorol tumanida 16 ta (6,2 %) ni tashkil etdi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi
(2026- yil 1-yanvar holatiga)**


	<i>Korxonalar soni, birlik</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>
Jami	258	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	29	11,2
Sanoat	133	51,6
Qurilish	14	5,4
Savdo	30	11,6
Tashish va saqlash	5	1,9
Yashash va ovqatlanish	6	2,3
Axborot va aloqa	26	10,1
Boshqa faoliyat turlari	15	5,8

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida xorij kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan 258 ta korxonaning 133 tasi (51,6 %) sanoat, 30 tasi (11,6 %) savdo, 29 tasi (11,2 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 14 tasi (5,4 %) qurilish, 5 tasi (1,9 %) tashish va saqlash, 6 tasi (2,3 %) yashash va ovqatlanish, 26 tasi (10,1 %) axborot va aloqa hamda 15 tasi (5,8 %) boshqa sohalarga to'g'ri keldi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar
(fermer va dehqon xo'jaliklari bilan)**


2026- yil 1-yanvar holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 22 491 tani tashkil qildi. Bu ko'rsatkich 2025- yilning mos davriga nisbatan 6,8 % ga ko'paygan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4 211 tasi (20 %) Jizzax shahriga, 3 291 tasi (15,6 %) Sharof Rashidov, 2 377 tasi (11,3 %) G'allaorol va 2 278 tasi (10,8 %) Zomin tumanlari hissalariga to'g'ri keldi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi taqsimoti, birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 22 491 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 10 187 tasi (45,3 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 5 145 tasi (22,9 %) savdo, 2 127 tasi (9,5 %) sanoat, 1 204 tasi (5,4 %) qurilish, 1 264 tasi (5,6 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 389 tasi (1,7%) tashish va aqlash, 268 tasi (1,2 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 237 tasi (1,1 %) axborot va aloqa sohasi, shuningdek 1 670 tasi (7,4 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keldi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmoqlariga to'g'ri kelib, eng kam ulushlar sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa sohaslariga to'g'ri keldi.

kichik korxonalar va mikrofirmalar sonining iqtisodiy faoliyati turlari




2025- yilning yanvar–dekabr oylarida yangi 3 586 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etildi. Bu esa 2024- yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 17,7 % ga kamaygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahri (829 ta), Sharof Rashidov (590 ta), Arnasoy (407 ta) tumanlarida, eng kam xo'jalik sub'yektlari Zafarobod (172 ta), Paxtakor (157 ta), Forish (137 ta), Do'stlik (132 ta), Yangiobod (96 ta) hamda Mirzacho'l (90 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sonining eng ko'pi savdo (1 177 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (813 ta), sanoat (439 ta) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (322 ta) sohalari, shuningdek boshqa faoliyat turlari (453 ta) hissalariga, eng kamlari esa, qurilish (194 ta), axborot va aloqa (76 ta), tashish va saqlash (65 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (47 ta) sohalari hissasiga to'g'ri keldi.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2026-yilning 1-yanvar holatiga 1 957 tani tashkil etdi, ulardan 1 122 tasi yoki 57,3 % i faoliyat yuritmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 389 tasi yoki 34,7 % i savdo, 334 tasi yoki 29,8 % i sanoat, 209 tasi yoki 18,6 % i yashash va ovqatlanish xizmatlari, 100 tasi yoki 8,9 % i qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 13 tasi yoki 1,2 % i sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, qolgan 5,7 % i boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keldi.

Xususiy korxonalar soni (2026- yil 1-yanvar holatiga, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xususiy korxonalar soni **2026- yil 1-yanvar** holatiga ko'ra 3 503 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1 216 taga yoki 25,8 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 1 795 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 105 taga yoki 5,5 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

2025- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 114 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 200 taga yoki 2,7 barobarga kamayganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (2026- yil 1-yanvar holatiga, birlikda)

Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2026- yil 1-yanvar holatiga 19 177 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1939 taga yoki 9,2 % ga kamayganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 12 172 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1 763 taga yoki 116,9 % ga ko'payganligini ko'rish mumkin.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 255 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 362 taga yoki 10 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

